
Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonlari o'rganilmoqda

Rishton tumanida qishki mavsumga tayyorgarlik ishlari va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda maktablarni kuz-qish mavsumiga to'liq tayyorlash choralari ko'rish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Tumandagi ta'lim maskanlarida mazkur yo'nalishda aniq tadbirlar belgilanib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta'lim muassasalarini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlashga muhim e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, binolar, muhandislik-kommunikatsiya tizimlari, isitish tarmoqlarini ta'mirlash va yangilash ishlariga katta e'tibor qaratildi. Mavsumga tayyorgarlik uchun mahalliy byudjet hisobidan mablag' ajratilib, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi tejamkor qozonlar o'rnatildi. Bir qancha qozon va qozonxonalarni joriy va mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi. Tayyorgarlik ishlarining o'z vaqtida bajarilishi va sifatini nazorat qilish maqsadida mas'ul vakillar, hududiy nazoratchilar biriktirildi. Kuz-qish mavsumida ta'lim muassasalarining barqaror ishlashini ta'minlash uchun yetarlicha ko'mir va briket zaxirasi yaratildi. Isitish va suv tarmoqlari, binolarning tom qismi joriy ta'mirlandi. Muxtasar aytganda, ta'lim muassasalarida kuz-qish mavsumi oldidan olib borilayotgan keng ko'lamli yumushlar yosh avlodning zamon talablari asosida bilim olishi, hunar o'rganishi, o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etishiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yana bir ifodasidir. Ayni damda sektor rahbarlari va ma'sul rahbarlar hamkorligida ta'lim maskanlaridagi o'rganish ishlari davom etmoqda. O'rganishlar jarayonida kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ko'rsatma, topshiriqlar berilmoqda.

2022-11-22 13:57:02